



JANUBIY VA MARKAZIY OSIYO MINTAQALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI MUSTAHKAMLASHDA O'ZBEKISTON PREZIDENTNING ROLI JUDA KATTA

POKISTONLIK EKSPERTLAR MAMLAKAT BOSH VAZIRINING O'ZBEKISTONGA RASMIY TASHRIFI YAKUNLARI HAQIDA

Boshlanishi 1-betda

Sarmad ALLI,
Pokiston Senati a'zosi:

— Tashrif ikki davlat o'rtasidagi chuqur tarixiy aloqalardan darak beradi. Pokiston Hukumati rahbari Shahboz Sharifning O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvi yangi kelishuv va tashabbuslar orqali mintaqaviy aloqalar doirasida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, strategik sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirish va o'zaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kun tartibidagi asosiy masala o'zaro savdo va sarmoyani rag'batlantirishdan iborat. Shu bilan birga, har ikki tomon o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish bo'yicha ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga intilmoqda.

Ishonchim komilki, Toshkentda bo'lib o'tgan muzokaralarda ta'kidlanganidek, iqtisodiy munosabatlarning bugungi sur'atlari bilan turli sohalarida, jumladan, energetika, infratuzilma va yuqori texnologiyalarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish orqali o'zaro savdo hajmini 2 milliard dollardan ziyodga oshirish mumkin.

Tashrif davomida muhim hujjatlar to'plami — savdo, mudofaa ishlab chiqarishi, iqlim o'zgarishi, turizm, madaniyat va ta'lim sohalarini qamrab olgan kelishuv va memorandumlar imzolandi. Ushbu kelishuvlar biznes imkoniyatlarini kengaytirish va muhim sohalarida Pokiston — O'zbekiston hamkorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Tashrif doirasida bo'lib o'tgan Pokiston — O'zbekiston biznes-forumi, ishbilarmon doiralari vakillari o'rtasidagi B2B uchrashuvlari tijorat aloqalarini mustahkamlash, yangi sarmoyaviy loyihalarni ishlab chiqish va qo'shma korxonalarni tashkil etishga zamin yaratdi.

Davlat rahbarlari iqtisodiy aloqalardan tashqari mintaqaviy xavfsizlik va ko'p

tomonlama hamkorlik masalalarini ham muhokama qildilar. Ikki davlat ham Markaziy va Janubiy Osiyoda barqarorlikni saqlash hamda mintaqaviy savdo yo'laklarini mustahkamlashdan umumiy manfaatlarga ega.

Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning roli juda yuqori. Ushbu muhim omil Pokistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim savdo va tranzit markazi sifatidagi mavqe bilan bir qatorda har ikki tomonning mintaqaviy taraqqiyot va iqtisodiy integratsiya haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi.

Pokiston va O'zbekiston o'zaro aloqalarni yangi cho'qqilarga olib chiqish, mintaqada uzoq muddatli farovonlik va barqarorlikni ta'minlash uchun savdo, investitsiya va mudofaa sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirmoqda.

Bosh vazir Shahboz Sharifning tashrifi Pokiston — O'zbekiston munosabatlarini mustahkamlash, kengaytirilgan diplomatik va iqtisodiy hamkorlikning yangi uqlariga yo'l ochishda muhim qadam bo'ldi.

Xolid Taymur AKROM,
“Umumiy kelajak jamiyati” tahlil markazi ijrochi direktori:

— Pokiston va O'zbekiston rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar ikki tomonlama strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu tashrif juda muhim. Har ikki davlat o'zaro savdo hajmini kengaytirishga intilayotgan ekan, uning natijalari mintaqaviy bog'liqlik tashabbusini yangi loyihalar bilan boyitadi. Diplomatik munosabatlarni mustahkamlaydi, iqtisodiy aloqalar va o'zaro farovonlikni rag'batlantiradigan hamkorlikning yangi yo'nalishlari bo'yicha kelishib olish imkoniyatini beradi.

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning O'zbekistonga tashrifi chog'ida ikki davlatning iqtisodiyotning turli sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lgan intilishini kuchaytiruvchi qator ikki tomonlama shartnomalar imzolandi.

Tashrifning asosiy nuqtasi Pokiston — O'zbekiston biznes-forumi bo'lib, unda yetakchi biznes vakillari B2B formatidagi uchrashuvlarda ishtirok etdi. Ushbu forum yakunlari Pokiston va O'zbekiston bizneslari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali savdo aloqalarini mustahkamlaydi, sarmoyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishga zamin yaratadi.

Yangi kelishuvlarning imzolangani savdo, iqlim o'zgarishi, mudofaa sohasidagi hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuvda ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun ham zamin yaratadi.

Mamlakatlarni iqtisodiy va strategik sheriklikni barcha sohalarida kengaytirish, barqaror rivojlanish va mintaqaviy taraqqiyotga ko'maklashish istagi birlashtiradi.

Pokiston va O'zbekiston mintaqaviy va global tinchlikka ko'maklashish, xususan, Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash borasida umumiy qarashlarga ega.

Har ikki davlat mintaqaviy savdo aloqalari va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, jumladan, terrorizmga qarshi kurash masalalarida o'z rolini kuchaytirish niyatida.

Bosh vazir Shahboz Sharifning tashrifi Pokiston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu nafaqat ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga zamin yaratadi, balki mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni yanada oshirishga ham xizmat qiladi. Strategik sheriklikni mustahkamlash har ikki davlatning o'sib borayotgan ikki tomonlama aloqalaridan uzoq muddatli foyda olishda davom etishini ta'minlaydi.

Adam SAUD,
“Bahriya” universiteti gumanitar va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, professor:

— Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning O'zbekistonga bu galgi tashrifi ikki birodar xalq o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir pallaga to'g'ri kelmoqda.

Rasmiy Islomobod va Toshkent o'zaro aloqalarni ko'p tomonlama darajada, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi holatida ham mustahkamladi.

O'zaro savdoni yanada rivojlantirish, madaniy almashinuvlarni mustahkamlash, strategik sheriklik uchun yangi umumiy asoslarni izlash, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha yaqin hamkorlik, Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligini ta'minlash tashabbusi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish — bularning barchasi ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalardir.

Umumiy din, tarix va madaniyat xalq diplomatiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda pokistonlik talabalar soni sezilarli darajada oshgani bu mamlakatning Pokiston jamiyati uchun ahamiyatidan dalolat beradi. Bunday o'zaro hamkorlik faol ravishda qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Ziyorat turizmi, albatta, muhim yo'nalish hisoblanadi. Aksariyat pokistonliklar Imom Buxoriy va Imom Termiziy merosiga hurmat bilan yondashadi. Shuningdek, Pokistonda o'zbek xalqining buyuk ajdodlari Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur e'zozlanadi.

“Uzbekistan Airways” pokistonlik yo'lovchilarga go'zal O'zbekistonga to'g'ridan to'g'ri va eng qisqa masofani bosib o'tishni ta'minlash barobarida Markaziy Osiyo, MDH va Yevropaning boshqa mamlakatlarga sayohat qilish uchun muqobil yo'nalish taqdim etishi mumkin.

Har ikki davlat barqaror tranzit tizimini yaratish, savdo-iqtisodiy maqsadlarga erishish, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini jadallashtirish uchun transport-logistika koridorlarini diversifikatsiya qilish ustida ishlamoqda.

Elektron tijorat va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlarni joriy etish iqtisodiy diplomatiyaning yana bir istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiy integratsiya va sanoat kooperatsiyasining yangi innovation, integratsiyalashgan va raqamli modelini shakllantirish ham ikki tomonlama kun tartibining muhim bandi sifatida qaralmoqda.

Xususiy sektor vakillarining jamiyati jarayonlarda bevosita ishtirok etishi, ular tomonidan har ikki davlat hududida barpo etilayotgan savdo uylari, zamonaviy ishlab chiqarish va sanoat obyektlari strategik sheriklikni yanada mustahkamlamoqda.

Ishonamanki, tashrif yangi marralarning boshlanishi bo'ladi. Shuningdek, u Pokiston va O'zbekiston xalqlariga, Markaziy hamda Janubiy Osiyo mintaqalariga barqarorlik va farovonlik olib keladi.

Asad Majid XON,
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi:

— Tashrif muhim voqea bo'ldi, chunki Pokiston ham, O'zbekiston ham Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining muhim a'zolari va faol ishtirokchilari hisoblanadi.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash tarafdori bo'lgan tashkilot sifatida IHT yetakchilik darajasidagi bunday ishtirok nafaqat mamlakatlarni ikki tomonlama asosda yaqinlashtirishda muhim rol o'ynashiga, balki mintaqaviy iqtisodiy o'sish, savdo integratsiyasi va aloqadorlik bo'yicha mazkur tuzilma kun tartibini ilgari surishda yordam berishga qat'iy ishonadi.

Biz ushbu muhim tashrif natijalariga ijobiy qaraymiz va u mintaqalararo hamkorlikni yanada jadallashtirishga umid qilamiz.

“Dunyo” AA



Islohotlar samarasi

AKLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIK VA JANGOVAR SHAYLIK

QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA YARATILGAN MUNOSIB SHAROIT HARBIY QUDRATIMIZNI YUKSALTIRMOQDA

Mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash, yosh avlodni ma'naviy barkamol va vatanparvar etib tarbiyalash, shuningdek, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini mustahkamlash muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

2024-yildamazkur yo'nalishda qabul qilingan qator huquqiy hujjatlar asosida qo'shinlarda ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, bu boradagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish maqsadida yozuvchi va shoirlar, olimlar, fan va san'at arboblari ishtirokida 33 mingga yaqin ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbir tashkil etildi. Bunday tashabbuslar orqali nafaqat Qurolli Kuchlar safidagi harbiylar, balki yosh avlodning ham vatanparvarlik tuyg'usi yuksaltirilmogda.

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq, **“Jizzax tajribasi”** asosida yurtimiz bo'ylab “Jasorat maktabi” harbiy o'quv yig'inlari o'tkazildi, ularga uyushmagan va profilaktik hisobda turgan 5,5 mingdan ziyod yosh jalb qilindi.

Shuningdek, yil davomida harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va soha faxriylarining ijtimoiy himoyasi e'tibor markazida bo'ldi. Xususan, harbiylarning 839 nafar farzandi oliy ta'lim muassasalariga intiyozli asosda o'qishga kirdi, 1200 nafarga yaqin harbiy xizmatchining rafiqasi va harbiy pensionerlar ish bilan ta'minlandi.

Bunday g'amxo'rlik uchun harbiylar, ularning oilalari va faxriylarimiz yuz-ko'zlarida chuqur ishonch va minnatdorlik hissi balqib turibdi.

Ko'rsatilayotgan e'tibor va uning natijasi milliy armiyamizning har jabhasida o'z samarasini bermogda. Qurolli Kuchlar akademiyasi misolida aytadigan bo'lsak, harbiy ta'lim muassasasi jamoasi harbiy kadrlarning jismoniy tayyorgarligi va g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, IT va zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladigan, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega ofitserlarni tayyorlash borasida qator

tadbirlarni amalga oshirdi. O'tgan yili turli tahdid va xavflarni hamkorlikda bartaraf etish maqsadida kuch tuzilmalari bilan birgalikda harbiy ta'lim muassasalarining kursant va tinglovchilari o'rtasida 9 marotaba ikki pog'onali qo'shma qo'mondonlik o'quvi hamda 2 marta strategik harbiy ish o'yinlari o'tkazildi.

Bunda ofitserlarning jangni rejalashtirish va boshqarish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish, Qurolli Kuchlar tizimini raqamlashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiylar va yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, ularni maktabdan boshlab harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi qator vazifalar parallel ravishda hamjihatlikda olib borildi.

Akademiyaga tomonidan real sharoitlarga moslashgan operativ-taktik vazifalar ishlab chiqildi. Kursant va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida “Xavfsizlik asoslari. Xavf va tahdidlar, Milliy manfaatlar”, “Sun'iy intellekt va uning harbiy sohada qo'llanilishi” kabi fakultativ kurslar yo'lga qo'yildi.

Akademiyaga jamoasi davlatimiz rahbarining mamlakatimiz taraqqiyoti uning mudofaasiga uzviy bog'liqlik haqidagi xulosalari va qo'ygan topshiriqlarni to'laqonli bajarish yo'lida bor kuch-g'ayrati bilan odimlamogda.

Hozirgi zamonaviy qurolli to'qnashuvlarda sun'iy intellekt, robot, raketa, dron va ularga qarshi kurash vositalari keng qo'llanilmogda. Globallashuv va g'ibrid urushlar kechayotgan jarayonda IT va axborot texnologiyalari, dronlar va ularga qarshi kurashish sir-asorlarini chuqur o'rganish maqsad qilinib, xorijlik hamkorlar bilan barpo etilgan kiberxavfsizlik, dasturlash laboratoriyalarida maxsus o'quv kurslari dasturlari bo'yicha mustahkam aloqalar o'rnatilayapti.



Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali harbiy xizmatchilar sog'lig'ini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tibbiyot muassasasidir. U nafaqat Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi, balki ularning oila a'zolari hamda faxriylar uchun ham yuqori malakali tibbiy xizmat ko'rsatayapti.

Muassasa faoliyati armiyamiz umumiy jangovar tayyorgarligi va mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ham bevosita bog'liq. Chunki sog'lom va jismonan baqquvat harbiylar mamlakat xavfsizligining mustahkam kafolatidir.

Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali respublikamizdagi eng zamonaviy, keng qamrovli diagnostika va davolash imkoniyatlariga ega bo'lgan tibbiyot maskanlaridan biriga aylandi. O'tgan yilning o'zida bu yerda **4 mingga yaqin** jarrohlik amaliyoti o'tkazildi, ulardan **46 foizi** yuqori texnologik operatsiyadir. Aorta-koronar shuntlash, yurak klapanlarini protezlash, yurak toj tomlarini stentlash, tos-chanoq va tizza bo'g'imlarini endoprotezlash amaliyoti shular jumlasidan.

O'tgan yili og'ir jarohat olgan yoki kasallikka chalingan harbiy xizmatchilarni

tezkor sog'aytirib, xizmati va oilasiga qaytarish maqsadida eng zamonaviy reabilitatsiya markazi ishga tushdi.

Nafaqat gospitalarni zamonaviy tibbiy texnika bilan ta'minlash, balki u yerda faoliyat yurituvchi shifokorlar salohiyatini oshirishga ham katta e'tibor qaratilayapti.

Bugungi kunda armiyamiz faqatgina moddiy-texnik bazasi bilan emas, balki strategik rejalashtirish, operativ boshqaruv va jangovar tayyorgarlik tizimi jihatidan ham jahon talablariga mos ravishda takomillashib bormogda. Qurolli Kuchlarimiz qo'shin turlari o'rtasidagi hamkorlik kuchayib, harbiy amaliy masalga ulotlar doirasida yangi taktik usullar samarali o'zlashtirilmoqda. Bu esa armiyamizning jangovar salohiyatini keskin oshirish bilan birga, har qanday tahdid va xavf-xatarlarga qarshi munosib javob qaytarish imkoniyatini yanada mustahkamlaydi.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularni munosib maosh, ijtimoiy kafolatlar va ta'minot bilan ta'minlash davlatimiz mudofaa siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada xizmatchilar va oila a'zolari uchun zamonaviy



turar joy majmualari barpo etilishi, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi, bolalarining sifati ta'lim olishiga sharoit yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, harbiylarning ma'naviy va jismoniy tayyorgarligini yanada oshirish, ularni uzluksiz ravishda qayta tayyorlash uchun zarur infratuzilma yaratilmogda. Bunday chora-tadbirlar harbiy xizmat nufuzini oshirish, armiya safilariga yuqori malaka va intizomga ega kadrlarni jalb etish hamda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 24-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida”gi qarorida ham bu yo'nalishda ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasini ko'rish mumkin.

Husn BULTAKOV,
kichik serjant:

— Sharafli va mas'uliyatli xizmat burchimizni ado etish davomida davlatimiz rahbari tomonidan bizga bildirilayotgan yuksak ishonch va g'amxo'rlikni hamisha his etib, undan bahramand bo'lib kelyapmiz. Prezidentimizning harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan navbatdagi qarori bizni yanada ruhlantirdi.

Xususan, turar joy ijarasi uchun to'lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdorining 20 foiz, oila a'zolari 3 kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirida ushbu miqdor 50 foiz oshirilgani, harbiy xizmatchilarga turar joy sotib olish uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori uy-joy hisoblangan qiymatining 35 foizi miqdoriga yetkazilgan bizni mamnun etdi.

Bu kabi g'amxo'rlik va imtiyozlarni bizga nisbatan bildirilgan yuksak ishonch va e'tibor namunasi deb bilaman. Ishonchga, vatan himoyachisi nomiga doim munosib bo'lishga bor kuch va bilimimni safarbar qilib, barchasiga munosib xizmatlarim bilan javob qaytaraman.

Qurolli Kuchlarda o'tkazilgan islohotlar tufayli bugun milliy armiyamiz tom ma'nodagi

professional armiya darajasiga yetdi. Uning tarkibida o'z kasbining haqiqiy fidoyilari xizmat qilyapti. Ana shunday mard, barkamol yoshlar safida ekanim menga cheksiz faxr, iftixor baxsh etadi.

Ra'no BULTAKOVA,
kichik serjant Husan BULTAKOVning rafiqasi:

— Davlatimiz rahbarining joriy yil 24-fevraldagi qarorini katta hayajon bilan o'qidim. Ta'kidlashni istardimki, biz — harbiylarning oilalariga e'tibor va g'amxo'rlik yildan yilga oshib, ko'rsatilayotgan yordam qamrovi kengayib bormogda.

Turmush o'trog'im xizmat taqozosi bilan yurtimizning turli g'arnizonlarida faoliyat ko'rsatdi. Demak, men ham har xil shart-sharoitlarda yashab, harbiycha hayotning pastu balandi, o'ziga xos qiyinchiliklari bilan yaxshi tanishman.

Oila bekasi sifatida, avvalo, vatanni himoya qilishdek eng sharaflil, elu yurt ardog'idagi, davlatimiz rahbariyati e'tiboridagi kasbni tanlagan inson bilan hayot yo'linni bog'laganimdan, unga yelkadosh bo'layotganimdan faxrlanaman. Farovon turmush kechirishimiz uchun qilinayotgan sa'y-harakatlardan minnatdormiz.

Harbiy xizmatchilarga berilayotgan bu kabi ijtimoiy kafolat va qo'llab-quvvatlash chorolari ularning jangovar ruhini mustahkamlash, xizmatga sadoqatini oshirish va armiyamiz umumiy mudofaa qobiliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida mehnat qilayotgan fidoyi va vatanparvar yurt himoyachilarimiz berilayotgan bu kabi e'tibor va rag'batdan yanada kuch olib, yuksak mas'uliyatni teranroq his etishi shubhasiz.

Otabek YO'LDOSHEV,
mudofaa vazirining axborot siyosat masalalari bo'yicha maslahatchisi — matbuot kotibi, polkovnik

Buyuk o‘zbek yo‘li

SIYOSIY TAFAKKURI YUKSAK XALQ

BUNDAY JAMIYATNI ASLO YENGIB BO‘LMAYDI



Ismoil SOIFNAZAROV, falsafa fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Yangi O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga jamiyatda uchrab turgan illatlar, jumladan, tanish-bilishchilik, urug‘-aymoqchilik va korrupsiyaga qarshi kurashda aholining barcha qatlamlari siyosiy va huquqiy tafakkurini shakllantirmasdan, rivojlantirmasdan, amalda qo‘llamasdan turib erishib bo‘lmaydi. Bunda siyosiy tafakkur jamiyat siyosiy hayotida yuz berayotgan jarayonlarning umumiy, xususiy, alohida tomonlarining o‘zaro aloqadorligini aks ettiruvchi, ayni vaqtda o‘zgartiruvchi va biror maqsad sari yo‘naltiruvchi aqliy bilishning yuqori shakllaridan biridir.

Aholining huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yuksak darajada bo‘lsagina, ular ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga faol munosabatda bo‘ladi, shaxsiy fikrini bildirgan holda jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Siyosiy yoki huquqiy tafakkurni yuksaltirish, o‘z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o‘tkazish, davr talablaridan kelib chiqib, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan me‘yorlarni bekor qilish bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistondagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy sohalaridagi keng qamrovli islohotlar jarayonida aholi ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlarni o‘rganib borish va tegishli sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar oldini olish va manzilli chora-tadbirlar ko‘rish imkonini beradi.

Jamiyatni modernizatsiyalash va yangilanish jarayonlari tom ma‘noda inson manfaatlarini asosida amalga oshirilayotgani, inson hayoti, fikri, xohish-irodasi va mehnati, mulki davlat tomonidan himoya qilinishi qonunlarda kafolatlangani mamlakatda siyosiy tafakkur, huquqiy javobgarlik va huquqiy burch davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etayotganini bildiradi. Oddiy qilib aytganda, bugungi aholi kechagi hamma narsaga ergashitirib ketaveradigan omi olomon emas.

Ha, xalqimizning tafakkuri o‘zgardi. Birgina konstitutsiyaviy islohotlar, yangilanishlarni misol tariqasida keltiraylik. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishida xalqimiz o‘z taklif va tashabbuslari bilan faol ishtirok etdi. Bosh qonunimizning muallifi xalqimizning o‘zi bo‘ldi. Konstitutsiya loyihasi jamaoatchilik muhokamasiga qo‘yilganidan to u referendumda ma‘qullanib, qabul qilinguncha xalqimiz bu jarayonlarda faol qatnashdi.

Bugun barcha muhim qonun va qarorlar jamaoatchilik muhokamasidan keyin qabul qilinayotgani xalqimizning siyosiy tafakkuri yuksalganidan dalolatdir desak yangilishmagan bo‘lamiz. Qolaversa, xalqimizning tafakkuri kuchaygani hisobiga aralash saylov tizimini joriy etishga mustahkam zamin yaratildi. Holbuki, ko‘plab davlatlarda bunday islohotlarni o‘tkazish uchun o‘n yillar kerak bo‘lgan.

Siyosiy tafakkur jamiyat siyosiy tizimining eng asosiy elementlaridan biri sifatida muhim o‘ringa ega. Jamiyatda siyosiy tafakkurning nechog‘liq rivojlanganlik darajasiga qarab, uning siyosiy tizimi qanchalik mukammalligiga baho berish mumkin. Siyosiy tafakkur mazkur jihatlari bilan mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar jarayonida, aholini ma‘naviy jihatdan yuksaltirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Siyosiy tafakkurning hozirgi vaqtda ilmiy muomalada mavjud bo‘lgan qator talqinlari bor. Masalan, siyosiy tafakkur o‘ziga ma‘rifatni, ongillikni hamda ijtimoiy siyosiy faoliyatni qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir. Yoki o‘z ichida ijtimoiy siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo‘lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma‘naviy madaniyatining bir qismidir.

Azal-azaldan bir haqiqat bor, ya‘ni tafakkuri kuchli, huquqini bilgan inson — qudratli inson. Zero, bunday shaxs o‘z huquqi poymol bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi, adolatsizlik, qonunbuzarlikka qarshi kurasha oladi.

ayni paytda o‘z zimmasidagi mas‘uliyat va burchni ham chuqur his etadi. Demak, bunday shaxslarning ko‘pligi har qanday jamiyatning boyligidir.

Biz bugun shiddat ila kechayotgan bir davrda yashayapmiz. Dunyoda keskinliklar, mahobatli o‘zgarishlar sodir bo‘lyapti. Bu jarayonda jamiyat o‘zgarishlari ba‘zan inson ong-tafakkurini ham ortda qoldirib ketayotganday. Dunyoviy tuzumga qarshi qaratilgan diniy tajovuzlar, terroristik harakatlar, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya shiddat bilan kuchayib borayotir. Bularning ortida tafakkurning pastligi, jaholat, bilimsizlik, ilmsizlik, ta‘lim olishga befarqlik kabi illatlar yotibdi.

Odamlarda siyosiy ong va tafakkurni yuksaltirmay, qonun ustuvorligini keng ko‘lamda kuchaytirmay, rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olish murakkab bo‘ladi. Respublikamizda qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolik jamiyati qurish uchun zamin tayyorlash, avvalo, o‘z huquq, majburiyat va erkinliklarini anglay oladigan, ularga og‘ishmay amal qilishga qodir barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etadi. Shu ma‘noda, ta‘lim bizni qutqaradigan najotkor kuch bo‘lishi mumkin.

Kishi kundalik voqea-hodisalarni kuzatib, doimo hushyor turmas, siyosiy tajriba hosil qilmas ekan, siyosiy tafakkurga ega bo‘lishi qiyin. Shuning uchun voqea-hodisalarni siyosiy idrok etish tafakkurning barcha turlaridan farq qiladi va ulardan ustundir.

Millat o‘zi uchun eng muhim bo‘lgan milliy tafakkurini, ya‘ni o‘ylash, fikrlash imkoniyatini asrab qolishi juda zarur. Aks holda, dunyo adabiyotining yirik namoyandasi Chingiz Aytmatov aytganidek, manqurtlik botqog‘iga tushib qolamiz. Manqurtga aylanish yoki manqurtga aylantirish hodisasi tarixda ham, bugun ham ko‘p uchraydi. Tafakkuridan ayrilgan millat ozod fikrlashdan mahrum bo‘ladi. U erkinlik tuyg‘usini his etmaydi. His etolmaydi. U qaramlikni, qullikni kurashsiz, norizo bo‘lmagan, tabiiy qabul qiladi. U bo‘ysinib, mute bo‘lib yashaydi. Uning uchun muqaddas tushunchaning o‘zi yo‘q.

Siyosiy tafakkurini yo‘qotish millat tanazzulini bildiradi. Mustamlakachilik zulmiga ko‘nikkan millat hatto mustaqillikning mazmun-mohiyatiga ham yetib borolmaydi. Uning tafakkurida qo‘rquv, hadik hukmronlik qiladi. U erkinlik havosidan nafas ololmaydi. Uning o‘pkasi rutubatga, chirkinkilikka to‘lgan.

Prezidentimiz millatga milliy, siyosiy tafakkurini qaytardi. Millatga fikrlash, o‘ylash, erkin so‘z aytish tuyg‘ularini qaytarib berdi. Siyosiy tafakkuri qaytarib berilgan millat o‘zining tarixiy ildizlarini anglab yetdi. Tafakkurimiz zanglashi oqibatida dunyodan uzilib, hatto Markaziy Osiyoda ham yakkalanib qolgan edik. Buning natijasida bir necha bor urushgacha yetib boradigan tahlikali vaziyatlar yuz berdi. Oqibatda qanchadan qancha insonlar, qarindoshlar orasiga sun‘iy parda tashlandi. Quda-andalar, qarindoshlar bir-birining ma‘rakasiga, to‘y-to‘nog‘iga borolmay qoldi. Hatto pasportini yonida olib yurish yodidan ko‘tarilgan yurtdoshimiz Toshkentdan vodiya yoki vohalik Toshkentga kelolmasdi.

Tasavvur qilyapsizmi, o‘z yurtingda pasportingiz uyda qolgani uchun qo‘shni viloyatga kirolmay ortga qaytaysiz. Bu ertak emas. Faqat Prezidentimizning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati tufayligina O‘zbekiston dunyoga ochildi. Yangi O‘zbekiston yaratildi. Endi hech narsaga befarq bo‘lmagan, tafakkuri uyg‘oq millat shakllandi. Moddiy muammolari yechish osonligi, ammo tafakkur tanazzulini bartaraf etish uchun yillar, hatto asrlar ham yetmasligi ayon bo‘ldi.

Keyingi yillarda milliy manfaatlarimizni ta‘minlash, xalqimizni rozi qilish yo‘lida sidqidildan mehnat qilib, g‘oyat muhim



natijalarni qo‘lga kiritaypmiz. Eng asosiy natija boshlagan islohotlarimiz ortga qaytmaydigan muqarrar tus olganida, bugungi jamiyatimizning siyosiy va ma‘naviy uyg‘onishida namoyon bo‘lmoqda. Bunday jamiyatni, o‘z oldiga ulkan vazifalar qo‘yib, kelajak sari ishonch bilan borayotgan xalqni hech kim o‘z yo‘lidan to‘xtata olmaydi. Bugun millionlab vatandoshlarimizning ong-u tafakkuri o‘zgarib, ulu islohotlar jarayoniga o‘zini bevosita daxldor deb bilmogda, bu o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

Aksincha bo‘lganida-chi? Siyosiy “so‘qir”lik jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiradi, deyarli barcha sohalarida mamlakat “quvib boruvchi” maqomida qoladi, sporting ayrim turlarini istisno qilganda, biror sohada ilg‘orlikka, yetakchilikka da‘vo qila olmaydi. Shu bois, omamaviy axborot vositalari kuzatib foydalangan holda siyosiy texnologiyalarni qo‘llash, milliy kontentlar yaratish orqali xalqimizning siyosiy bilimni yuksaltirish, tafakkurini charxlashga e‘tiborni yanada kuchaytirishimiz dardor.

Bugungi mediamakon, axborot-kom-munikatsiya shakllari tobora ko‘payishi davrida internet, mobil aloqa va boshqa vositalar yordamida jamiyatga ma‘naviy intervensiya aynan “Soft power” siyosiy texnologiyalari orqali amalga oshiriladi, yoshlar ongi ruhiy-g‘oyaviy manipulyatsiyaga duchor qilinadi. Turli ijtimoiy saytlar va kanallar amaldagi ta‘lim-tarbiya yo‘sinidan farq qilib, tezkor, ta‘sirchan va dunyoqarashiga mos siyosiy texnologiyalar vositasida yoshlar qalbini zabt etadi. Siyosiy texnologiyalarsiz esa ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish mumkin emas.

Davlat boshqaruvida shaffoflik kuzatildi — har bir fuqaro ushbu sohada holat bo‘yicha ma‘lumot olish imkoniyatiga ega. Bunda, afsuski, turli blogger va mustaqil jurnalistlar

Bugun biz yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil boryapmiz. Vujudimiz, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo‘sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz — yangi O‘zbekistonni, albatta, bunyod etamiz. Siyosiy tafakkuri yuksak xalqi bilan O‘zbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi.

uchqunni alangalatish, “burgaga achchiq qilib ko‘rpani yondirish” — jamiyatda beqarorlik vaziyatini shakllantirish, hokimiyat obro‘yini to‘kishga, aholini gij-gijlatishga urinadi, barqaror rivojlanishga real xavflarni jonlantirishga harakat qiladi. Bunday sharoitda xalq tanlagan dunyoviy demokratik taraqqiyot yo‘lini saqlab qolish, yangi O‘zbekistonni barpo etish, Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, xalqimizni Uchinchi Renessans bekatiiga olib chiqish ma‘rifat sohasidagi ezgu maqsadlardan biridir.

Ushbu ulkan maqsadlarga erishish fuqarolar tomonidan siyosiy savodxonlikni, siyosiy tafakkurni charxlashni, hukumat qarorlarini izchillik bilan bajarishni, turli aldov va buzg‘unchi ta‘sirarlarga berilmaslikni taqozo qiladi. Bu borada davlat, hokimiyat va fuqaro o‘rtasidagi masofani yanada



siyosiy tafakkurini oshirish ustida muttasil ishlashi lozim bo‘ladi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar o‘zining asosiy elektorati sifatida tanlangan ijtimoiy guruhlarni manfaatlarini qonunchilik va ijro hokimiyati doirasida yanada teranroq ifodalashga intilsa, a‘zolari safi kengayib, mavqei yanada oshib borishiga mustahkam zamin yaratiladi. Partiyalararo raqobat yangi bosqichga chiqadi.

Yarim asrdan ortiq vaqtdan beri oliy ta‘lim tizimida ishlayotgan pedagog sifatida tajribamdan kelib chiqib yana bir fikrni aytmoqchiman. Yoshlarning siyosiy tafakkuri, dunyoqarashi ancha o‘zgargan, yuksalgan. Ular oldingi yoshlar emas. Avval talabalarni majburlab o‘qitgan bo‘lsak, bugun mustaqil fikrlaydigan, bilimga chanqoq, zamonaviy texnologiya va bilimlarni egallashga

intilayotgan serg‘ayrat yoshlar bizni o‘z ustimizda ko‘proq ishlashga majbur qilyapti. Ularda islohotlarga ishonch ruhi yuqori.

Maktablarda ham siljish katta. O‘rta maktablarni bitirib, universitetga kirgan yoshlarda shu narsalarni ko‘ryapmiz. Boshqa hamkasblarim bilan subhatahshish asnosida bu tendensiya kuchayganiga amin bo‘lyapman. Demak, islohotlar mevasini bermoqda. Aytmoqchimamiz, siyosiy tafakkur yuksalishida ta‘limdagi islohotlar katta rol o‘ynayotir. Xususan, ijtimoiy fanlar o‘qitilishi ham yoshlar tafakkuri o‘shishida muhim bo‘ldi. Zero, ijtimoiy soha boshqa texnik va iqtisodiy, tijorat, moliya, xo‘jalik sohalarini kabi to‘g‘ridan to‘g‘ri katta daromadlar keltirmaydi. Lekin jamiyatning ma‘naviy bo‘shlig‘i orqali yuz beradigan oqibatlar va ofatlar tuzatib bo‘lmaydigan kulfatlariga sabab bo‘lishi mumkinligini bugun hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Afsuski, bunday harakat tarafdorlari jamiyatimizda ham uchrayapti.

Ijtimoiy fanlarni kamaytirgan holda yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkindir. Ammo haqiqiy vatanparvar, millat uchun g‘am chekadigan insonni tarbiyalash ancha mushkul ish. Uchinchi Renessans haqida qanchalik ko‘p gapirmaylik, harakat qilmaylik, uning tub mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yordamisiz yoshlar ongiga singdirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar Uchinchi Renessans boshlanishi va rivojlanishi katalizatori, yuksak tafakkur poydevori hisoblanadi. Aynan ijtimoiy-gumanitar fanlar xalqni va butun millatni uyg‘otishga qodir yuksak kuchdir.

Bugun biz zamonaviy bilim va texnologiyalar, iqtisodiyotni egallagan avlodni tayyorlashimiz kerak. Tabiiy-texnik

va ixtisoslik fanlari bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun asosiy omil ekanini shubhasiz. Ammo yangi avlodni xalq va jamiyat, millat va davlat manfaatlarini ko‘zlaydigan, o‘zini yurt manfaatlarini bilan birga ko‘radigan va islohotlarga daxldorligini, ijtimoiy mas‘ulligini sezadigan, yetuk inson etib tarbiyalash uchun ushbu fanlarning o‘zi kifoya qilmaydi.

Biz davlat va jamiyat manfaatlarini yo‘lida halol mehnat qilgan, bu borada barcha ijtimoiy chaqiriq va da‘vatlarga “labbay” deb javob bergan ota-bobolarimiz avlodi ta‘sirida tarbiyalandik. Ularning bunday avlod bo‘lishida ijtimoiy fanlar tizimining ahamiyati katta bo‘lgan. Shunday ekan, ijtimoiy fanlarga e‘tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona va bugungi kunda chet ellarda “boy berilgan avlod” deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi? Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida bundan 60-70 yil ilgari Ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchilik va moddiy taqchillik yillarida xorijda ishlab chiqilgan va asosan, ma‘naviyat va gumanitar ta‘limga pul sarflash zarur emas deb hisoblangan va mutlaq g‘oyasizlikka asoslangan ijtimoiy konsepsiya oqibatlarini qanday bo‘lganini bugun ko‘rib turibmiz, deya ta‘kidlaydi. Demak, ijtimoiy fanlarni o‘qitishga vaqt va mablag‘ni ayamassligimiz kerak. Besh yil, o‘n yil o‘tar, sarflangan resurs izzis ketmaganiyining guvohi bo‘lamiz. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi davlatlar tajribasi ham ta‘lim va tarbiyaga sarflangan moliya o‘zini oqlaganini butun dunyoga namoyon qildi. Agar ijtimoiy fanlarni e‘tibordan qoldirsak, yana eski yo‘l o‘zanlariga tushib qolamiz. Bunga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Yangi O‘zbekistonda kechayotgan o‘zgarishlar haqida gap ketsa, uning ta‘rifi juda maroqli va zalvorli: jamiyatda tafakkur epopeyasi ro‘y bermoqda. Bu mardonavor yuksalish yo‘li bilan uyg‘un hodisa. Ana shu yo‘l barchamizni, ko‘p millatli xalqimizni yangi maralar sari chorlab turadi.

Zero, bugun taraqqiyot yo‘lida dadil odimlayotgan yangi O‘zbekiston uchun uning rivojiga to‘siq bo‘ladigan, o‘zi ishlamay, ishlayotganlarga xalal beradigan, kuzatuvchi va tomoshabin pozitsiyasida turadigan odamlar emas, aksincha, yurtga daxldorlik bilan yashaydigan, mamlakatni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan, xalq va davlat uchun halol, vijdonan va sidqidildan xizmat qiladigan, bir so‘z bilan aytganda, vatanparvar, fidoyi, tashabbuskor shaxslar kerak. Yangi O‘zbekiston islohotlari yosh avlod ongiga, siyosiy tafakkuriga milliy g‘urur bilan kirib bermoqda. Jamiyatdagi yangilanishlar orqali yoshlar o‘zining voqeilikka siyosiy faolligi bilan yondashib, xalqning tarixan shakllangan yuksak falsafiy tafakkurini teran anglab yetdi. Mana shunday siyosiy faol yoshlar yurtimizning barcha hududlarida yetakchilik faoliyati bilan ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, huquqiy va boshqa sohalar rivojiga hissa qo‘shayotgani quvonarlidir.

Bugun biz yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil boryapmiz. Vujudimiz, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo‘sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz — yangi O‘zbekistonni, albatta, bunyod etamiz. Siyosiy tafakkuri yuksak xalqi bilan O‘zbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi.





Kun mavzusi

Qurilish oxirgi yillarda O‘zbekistonda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, shaharlarda ko‘p qavatli turar joylar qurish shu qadar ommalashdi yoki sharoit va imkoniyatlar bunga yo‘l ochdiki, natijada xususiy qurilish kompaniyalari soni ortib, har qadamda bir yangi uy qad ko‘tara boshladi. Buning ortidan yuzlab, minglab oilalar uy-joyli bo‘layotir. Ammo va‘da qilingan uylar ko‘tarilmay, puliga chuv tushib qolayotganlar ham yo‘q emas.

Ko‘p hollarda yangi qurilayotgan uylarning topshirilishi kechikib, aholi to‘lagan pullari muzlab turgani, shartnomalar, asosan, quruvchi manfaatiga xizmat qilayotgani oxirgi yillarning eng og‘riqli muammolaridan. Hali bir g‘ishtni qo‘yilmasidan turib, uy-joy sotish, odamlar loyihada ko‘rgan xonadoni uchun belgilangan narxning bir qismini oldindan to‘lashi, eng achinarlisi, shartnoma shartlarini tuzukroq o‘qimasdan hamda uy-joy qurilishiga qonuniy asoslar o‘rganilmasdan imzolashi ortidan yuzaga kelayotgan muammolar aksariyatimizga tanish.

Bir necha yil oldin ko‘plab odamlar katta bir quruvchi kompaniya ustidan shikoyat qilib, va‘da qilingan uy-joy qurilmayotgani, pullari ham qaytarib berilmayotgani bo‘yicha sudga murojaat qilgani bilan bog‘liq holat ancha shov-shuv bo‘lgandi. Murojaatchilar soni shu qadar ko‘pligidan hatto vaziyat davlat nazoratiga olingan. To‘lov qilganlarning aksariyatiga davlat tomonidan qurilgan yangi xonadonlar berildi. Ammo har doim ham bunday bo‘lavermaydi. Chunki aholi xususiy kompaniya bilan shartnoma tuzar ekan, unda davlat biror majburiyatni zimmasiga olishi keltirilmaydi. Kelishuv ikki tomonlama bo‘ladi, majburiyatlar ham shunga yarasha. Odamlar aldanayotgani ham shundan. Afsuski, ko‘pchilik shartnomani tushunib-tushunmay imzolaydi, shartlar esa ko‘proq quruvchi kompaniya manfaatlariga xizmat qiladi. Qonuniy chora ko‘rilganda jarayon ancha uzoq davom etadi. Buning ortidan keyingi yillarda yurtdoshlarimizda yangi qurilayotgan uy-joylarni xarid qilishda bir oz qo‘rquv va ikkilanishlar paydo bo‘ldi.

Shu kabi holatlar va ayni vaziyat uy-joy qurilishida aholi mablag‘lari hamda huquqlarini himoya qiladigan yangi tartibni joriy etishni taqozo etayotgandi. Prezidentimizning joriy yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni masala yechimida ayni muddao bo‘ldi. Chunki unda turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini yanada tartibga solishga qaratilgan aniq mexanizmlar belgilandi. Avvalo, bunda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Qolaversa, uy-joylarni ulush kiritish va ipoteka krediti asosida sotib olishning ishonchli va samarali imkoniyatlari yaratilmoqda.

Endi qurilishga ulush kiritish faqat notarial tasdiqlangan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ya‘ni joriy yil 1-iyuldan boshlab quruvchilar va mijozlar o‘rtasidagi ulush kiritish shartnomalari majburiy tartibda notariussda tasdiqlanishi va kadastro ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Shu sanadan e‘tiboran yangi mexanizm



ESKROU TIZIMI UY-JOY SOTIB OLUVCHILARNING PULLARI KAFOLATLANADI

— eskrou tizimini joriy etish boshlanadi. Bu tizim ulushdor, ya‘ni uy-joy sotib olish istagidagi xaridorlar huquqlarini to‘liq himoyalab, to‘lov pullari ishonchli saqlanishi va xonadon o‘z vaqtida topshirilishini kafolatlaydi.

U qanday ishlaydi?

Eskrou — inglizcha “escrow” so‘zidan olingan bo‘lib, pul yoki mol-mulkni saqlash ma‘nosini anglatadi. Bu ishning, xizmatning buyurtmachisi yoki tovar oluvchisi tomonidan to‘langan pullar, ikkinchi tomondan, o‘z majburiyati lozim darajada bajarilmagunga qadar to‘langan mablag‘lar muzlatilgan holda uchinchi shaxs tomonidan saqlanishini nazarda tutuvchi huquqiy mexanizm hisoblanadi. Bunda ishini bajaruvchi, xizmat ijrochisi, tovarni topshiruvchida ishini bajargan, xizmatni ko‘rsatganidan yoxud tovarni topshirganidan keyin uning haqini ololmaslik xavfi kamayadi. O‘z navbatida, ikkinchi tomonda pulni to‘laganidan so‘ng ish, xizmat va ashyodan quruq qolish holatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tizim jahon amaliyotida sinovdan o‘tib kelyapti. Germaniyada eskrou hisobraqam ochish va uni yuritish bo‘yicha xizmatlarni nafaqat banklar, balki notariuslar, soliq agentlari, auditorlar hamda advokatlar ham ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, notarius tomonidan ochilgan eskrou hisobvarag‘iga ko‘ra, notarius oldi-sotdi shartnomasi bajarilishini nazorat qilib boradi hamda shartnoma shartlari bajarilgandan keyin pulni sotuvchiga berishi mumkin bo‘ladi. Mazkur mexanizm mamlakatimizda faol qo‘llanilishi fuqarolarning mulkiy huquqlari buzilishi, pul to‘lab, keyin mol-mulksiz qolishi va boshqa ehtimoliy noinsof xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz qurilish sohasida joriy etilayotgan eskrou amaliyoti mohiyatan shuni nazarda tutadi. U quruvchi va xaridor o‘rtasidagi oldi-berdining yangicha shakli hisoblanadi. Endi hali bitmagun uydan kvartira sotib olmoqchi bo‘lgan fuqaro o‘sha uyga o‘z mablag‘larini tikish orqali ulush bilan kiradi va ulushdorga aylanadi. Buning uchun quruvchi, ya‘ni developer o‘ziga emas, bankka to‘lov qiladi. Quruvchi va tijorat banki o‘zaro kelishuv



asosida bankda eskrou hisobvarag‘ini ochadi, ulushdor to‘lagan pullar shu hisobvaraqa yig‘iladi. E‘tiborlisi, uy bitmaguncha quruvchi kompaniya bu pullardan foydalana olmaydi. Turar joyini esa o‘z mablag‘lari yoki bank krediti asosida qurib bitkazadi.

Ulushli shartnoma orqali developer ko‘rsatilgan uyni qurib, o‘z vaqtida topshirish majburiyatini olsa, bank ulushdorning pul mablag‘lari eskrou hisobvarag‘ida yig‘ilishi, xavfsiz saqlanishi, shuningdek, developerning uy-joy qurilishini loyihaviy moliyalashtirish tartibini nazorat qiladi. Banklar uy-joyini o‘z vaqtida va sifatli qurish hamda uni egasiga yetkazib berishni kafolatlaydi. Quruvchi va xaridor o‘rtasida kafil bo‘lib xizmat qiladi.

— Afsuski, bugungi kunda ko‘p holatda ulushdorning huquqi poymol bo‘lyapti, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi boshqarmasi boshlig‘i Davron Meliyev. — Developerlar tomonidan pullarni o‘zlashtirib, qaytarib bermaslik holatlari ko‘p. Shu bois, yangi qonuniy tizimni ishlab chiqish jarayonida, birinchi navbatda, ulushdor huquqlarini himoya qilish, shu bilan birga, developerlar uchun ham ishini yengillashtirish nazarda tutilgan.

ma‘lumotlar jamlab boriladi. Bu axborotlarni xaridorlarning o‘zi ham platformadan kuzatib, quruvchining ruxsatnomasi mavjudligi, uning reytingi va oldingi loyihalari haqida bilib borishi mumkin. Qurilish jarayonlarining platforma orqali shaffof ko‘rib borilishi sohada investitsiyalar xavfsizligi, ishonchli developerlar bozori shakllanishiga xizmat qiladi.

Agar uy-joy o‘z vaqtida bitkazilmasa, taqdim etilgan kredit hisobiga bank obyektni bitmagun holda olib qo‘yadi va o‘z mablag‘lari hisobidan yoki boshqa investor tomonidan qurib bitkazib, bozorga taqdim etishi mumkin. Bu borada shunga o‘xshash bir necha variant taklif qilyapti.

Quruvchi kompaniyalarga “jabr” bo‘ladimi?

Uy-joy qurilishi daromadli bizneslardan biri. Qolaversa, yurtimizda aholi soni tobora ko‘payishi hisobiga yangi turar joylarga talab oshyapti. Buni qoplash uchun investorlar, quruvchi kompaniyalarga qulay sharoit, imtiyozlar berilyapti. Faqat bundan to‘g‘ri foydalanish, odamlarga manfaatli takliflar berish insodan bo‘ladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yilning o‘zida 100 mingdan ziyod xonadonga ega 2044 ta ko‘p qavatli uy barpo etildi. Buning ortidan pudratchilar, boshqaruv va servis, qurilish materiallari, transport kabi sohalarda 350 ming odam ishl bo‘ldi. Mebel, elektrotexnika, to‘qimachilik, qurilish materiallari sohalarida qo‘shimcha 11 trillion so‘mlik bozor paydo bo‘ldi.

Demak, eskrou tizimini joriy etishdan ko‘zlangan maqsad faqat xaridorlar manfaatlarini himoya qilishdangina iborat emas. Agar shunday bo‘lsa, uy-joy qurilishi bozorida tadbirkorlarning hafsalasi pir bo‘lib, sohadan uzoqlashishi mumkin. Bundan esa hech kimga manfaatdorlik yo‘q. Aksincha, yangi tizimni

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



YOSH LARGA KUCH VA SHIJOAT BAG‘ISHLAYOTGAN TASHABBUS



Yangicha yondashuvlar

Davlatimiz rahbari joriy yil 14-fevral kuni yoshlar bilan ochiq muloqotida yurtimiz o‘g‘il-qizlari hayotida katta o‘zgarish yasaydigan uchta muhim hujjatni imzolaganini ta’kidladi. Hujjatlarga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan, kamida 20 yoshni ishga olib, kichik korxona ochgan va o‘quv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beriladi. Ularning biznes g‘oyalari loyihaga aylantiriladi.

Shu paytgacha mavjud sharoitdan foydalanib, 100 yigit-qizni ish bilan ta‘minlagan denovlik Qurbonali Kazakovga yangidan yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Yosh tadbirkor faoliyatini 2017-yilda boshlagandi.

Aynan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasidan imtiyozli kredit olib, ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirdi.

Hozir avtomobil o‘rindiqlari uchun maxsus g‘ilof hamda gilamchalar ishlab chiqarayotgan tadbirkor o‘z mahallasidagi ko‘plab yigit-qizlarning bandligini ta‘minlagan. 100 dan ziyod ish o‘rni ochgan ishbiarmon yangi loyihalarni amalga oshirish taraddudida. Bu esa yana 50 yoshning ishl bo‘lishiga xizmat qiladi.

— Prezidentimiz yoshlar bilan ochiq muloqotda ta’kidlaganidek, sanoat zonalaridan ipoteka dasturi orqali bino olayotgan

tadbirkorlarga uskuna xaridi uchun 500 ming dollargacha kredit ajratiladi. Sodda qilib aytganda, tayyor ishlab chiqarish maydonini olgan yosh tadbirkorga imtiyozli shartlarda uskunalar ham olib beriladi. Avvallari Xitoydan maxsus texnikalarni keltirgandim. Endi yanayam qulay shart-sharoit yaratilyapti, — deydi Qurbonali Kazakov.

Denov tumanida hozir yoshlar tadbirkorligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Qo‘zichoqli” yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasidagi 59 ta lotda sanoat ipotekasi asosida yo‘lga qo‘yilayotgan loyihalarga ham asosan yoshlar jalb etilmoqda. Buning evaziga yaqin orada bu yerda 400 ga yaqin ish o‘rni ochildi.

Sohibqiron Amir Temurning “Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”, degan gapi zamirida bir olam ma‘no mujassam. Tadbirkor va ishbiarmon, keng dunyoqarashli

va bilimli yoshlar — yurt kelajagi, tayanchi, mamlakat taraqqiyoti va el farovonligini ta‘minlashdagi muhim kuchlardan. Shu bois, mamlakatimizda yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga, tadbirkorligiga alohida e‘tibor qaratilyapti.

Prezidentimizning “Surxondaryo viloyatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, vohaning shimoliy qismida ilk bor yangi oliy ta‘lim muassasasi — Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ochilgan edi.

Talabalar bandligini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida qator topshiriqlar belgilab berilgan edi. Shu vazifalar ijrosidan kelib chiqqan holda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Karyera markazi” faoliyat yuritaypti.

Oliy ta‘lim muassasasining 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan istiqbolli rejasiga ko‘ra, zamonaviy markaz talabalarning darsdan bo‘sh vaqtda mustaqil ta‘lim olishi, hunar o‘rganishi, qobiliyat va iqtidorini tijoriylashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Buning uchun pazandalik, tikuvchilik sexlari, erkaklar sartaroshxonasi, g‘ozallik saloni, amaliy san‘at to‘garagi, koreys, yapon, xitoy, nemis, turk, ingliz, italyan va rus tili o‘quv kurslari mavjud.

— Ayni paytda markaz xodimlari ham oliy ta‘lim muassasasida o‘qib, ham mehnat qilishga ehtiyoj sezayotgan men kabi talabalarning eng yaqin ko‘makchisiga aylanib ulgurdi, — deydi Mashhura Nosirova. — Markazning maqsadi ham shu: ish izlayotgan talabalarni yarim



kunlik ish bilan ta‘minlash, kasbiy o‘sishi, ish beruvchilar bilan muloqotini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Mamlakat taraqqiyoti ko‘p jihatdan iste‘dodli yoshlarni tanlash, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish, qobiliyatini rivojlantirish, intellektual salohiyatini namoyon etishiga ko‘maklashishga bog‘liq.

— “Karyera markazi” ish beruvchilar va bitiruvchilarni birlashtiruvchi maydonga aylanadi. Bugun iqtidorli yoshlarni aniqlash, ta‘lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalar, uslublar va xorij tajribasini keng joriy etish etarga yurt

koriga yaraydigan barkamol farzandlarning kamol topishiga zamin yaratadi, — deydi o‘qituvchi Suxrobjon Xidirov. — Yangi biznes va loyihalarning paydo bo‘lishi bitiruvchilarning ish bilan ta‘minlanishini osonlashtiradi. Bu esa aholi turmush darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Surxondaryo viloyatida 45 ming 947 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Shundan 16 ming 142 tasining ta‘sischisi, ya‘ni 35 foizdan ortig‘i aynan 30 yoshga to‘lmagan yoshlardir. Ular tomonidan hududdagi 1,5 mingga yaqin yigit-qizning bandligi ta‘minlangan. Bugun vohadagi 181,3 gektar

to‘liq ishga tushirish orqali developerlar (bir vaqtning o‘zida investor, loyihachi, quruvchi kabi vazifalarni bajaruvchi) ishini ham yengillashtirish nazarda tutilgan. Masalan, eskrou tizimi developerlarga hozirgidan pastroq stavkada mablag‘ jalb qilish imkonini beradi. Quruvchi tashkilotlar qurilishni boshlaganidan yakunlaguncha, lekin ko‘pi bilan 12 oy davomida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Biroq obyekt muddatida topshirilmasa, developer yer solig‘ini 2 karra miqdorda to‘laydi.

Endi quruvchilarga mablag‘larni faqat eskrou orqali jalb qilishga ruxsat etiladi. Bunda kompaniya obyektning 30 foizini o‘z mablag‘lari, 70 foizini eskrou hisobi ochilgan bank kreditidan quradi. Ammo bankda ochilgan eskrou hisobvarag‘idagi pullar qurilishga yo‘naltirilmaydi. Obyekt to‘laligicha tadbirkor va bank krediti hisobiga quriladi. Tijorat banki hisobraqamda turgan kafolatti pullar evaziga quruvchiga arzonroq foizda kredit ajratadi.

Qurilish bitib, xaridor xonadonni qabul qilib olgach, uning bank hisobvarag‘idagi pul developer tashkilotga o‘tkaziladi yoki kreditini so‘ndirish uchun yechib olinadi. Quruvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda bu pul egasiga 6 oydan keyin qaytarib beriladi. Ya‘ni uy bitmay qolsa, xaridor kuyib qolmaydi, bankka qo‘ygan pullarini muammosiz qaytarib oladi.

— O‘zbekistonda eskrou tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlamayotgani quvonarli. Buni bir necha yil oldin tasavvur ham qila olmasdik, — deydi Toshkent shahridagi “Yangi zamon bino” korxonasi direktori Artyom Kreskas. — Jahon tajribasida qurilish oldi-berdilari aynan shunday tizim asosida bo‘ladi va bu sohaga zamonaviy mexanizmlar kirib kelayotganidan dalolat. Turar joy qurish doim jiddiy masala va u nazoratda bo‘lishi kerak. Bu xoh sifat, xoh shartnoma yoki to‘lovlar masalasida bo‘lsin. Shu orqali qurilish bozorida sog‘lom raqobat shakllanib, kompaniyalar xaridorlar ishonchini qozonish uchun o‘z ustida ishlay boshlaydi. Yurtimizda eskrou tizimini rivojlantirishga 1 milliard dollar va xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘lari hisobidan 310 million dollar jalb etilayotgani ham bejiz emas. Bu yaqin yillarda, albatta, ijobiy natijasini beradi.

Yangi tizim bilan fuqarolarning uy-joy uchun to‘lagan pullari har tomonlama himoyalandi. Xususan, yuqoridagi farmon bilan eskrou hisobvarag‘iga yo‘naltirilgan pul mablag‘larini to‘xtatib qo‘yish yoki hisobdan chiqarish taqiqlab qo‘yilgan. Hatto ulushdorning ayrim sabablariga ko‘ra, Majburiy ijro byurosidan qarzi bo‘lib qolgan taqdirda ham eskrou hisobvarag‘idagi mablag‘lariga tegilmaydi. Bu pullar faqat ulush kiritilgan uy-joy bitgach, fuqaro tanlagan xonadon xaridiga yo‘naltiriladi.

Yana bir afzalligi, ulushdor o‘z ulushini hali uy bitmay turib mulk sifatida sotib yuborishi ham mumkin. Natijada hali kadastri chiqmagan uylarning ham ikkilamchi bozori paydo bo‘ladi. Ulush sotilgan taqdirda developer va bankingning yangi ulushdor oldidagi majburiyatlari saqlanib qolaveradi.

Shunday qilib, joriy yil 1-iyuldan boshlab ulush kiritish asosidagi qurilishlarda quruvchi va xaridor o‘rtasidagi oldi-berdining shakli va mazmuni o‘zgaradi. Mazkur tartib yil oxirigacha ixtiyoriy bo‘ladi, 2026-yil 1-yanvardan esa qurilishda mablag‘ni jalb qilish faqat eskrou hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Shu tarzda yangi uylarni belgilangan muddatlarda egalarga topshirish va aholi to‘lagan pullar muzlab qolmasligi to‘liq yangi tizim nazoratiga o‘tadi.

Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

maydonda 53 ta kichik va yoshlar sanoat zonasi tashkil qilingan. Ushbu kichik va yoshlar sanoat zonalarida qiymati 689,1 milliard so‘mlik 488 ta loyiha joylashtirilgan. Natijada 1871 ta ish o‘rni ochildi.

Bandixon tumanida 2024-yilda umumiy maydoni 27 gektardan iborat va o‘zida 120 ta lotni jamlagan kichik va yoshlar sanoat zonasi faoliyat boshladi.

— Keyingi yillarda Bandixon tumanida ham xizmat ko‘rsatish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Natijada 2024-yilning o‘zida 540 ta yangi ish o‘rni ochildi, — deydi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i Orif Murodov.

Tadbirkor Safar To‘laganov 100 million so‘m bilan ishga tushirgan korxonada hozir bir kunda o‘rtacha 50-60 dona mahsulot tayyorlanaypti va vohadagi 5 ta tumanning ichki bozoriga kirib bormoqda.

— Viloyatimizda biz kabi yoshlarning intilish va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanaypti. Biznes loyihalarimiz moliyalashtirilyapti. Davlatimiz rahbarining yaqinda yoshlar bilan muloqoti bizga yangi kuch va faoliyatimizni yanada rivojlantirish uchun rub bag‘ishladi. Endi aholi bandligiga sezilarli hissa qo‘shishni yanada kengaytiramiz, — deydi Safar To‘laganov.

Muloqotda davlatimiz rahbari kelajagimiz egalari bilan uchrashuvdan mamnun ekanini ta’kidlab, yoshlarni xalqimizning oltin fondi deb atadi. Shunday ekan, ana shu e‘tirofga munosib avlod shakllanishini davrning o‘zi talab etayotgani ham ayni haqiqat.

Sarvar TO‘RAYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon bilan tasdiqlangan davlat dasturi beshta yo‘nalish kesimida 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va har bir yo‘nalish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni qamrab olgan.

Davlat dasturi aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shu o‘rinda hujjatdagi aholini qiziqtiradigan va e‘tiborini tortadigan bir bandga to‘xtalmoqchimiz. U ham bo‘lsa, aholining kundalik hayotiga ekologik tamoyillarni singdirish orqali “Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targ‘ib qilishga qaratilgan **“Bir million yashil oila”** umummilliy harakatini yo‘lga qo‘yish. Bu aholi orasida kunlik yurish va yugurishni targ‘ib qilish, “yashil transportda”, jumladan, velosipedda harakatlaniшни rag‘batlantirish, plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish, oziq-ovqat isrofgarchiligining oldini olish, suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish kabilarda o‘z aksini topadi.

Albatta, har birimiz atrof-muhit muhofazasi uchun mas‘ulmiz. Yana bir tarafdan, belgilanayotgan vazifalarning inson salomatligi uchun foydasi juda katta. E‘tibor bering, mana shunga qo‘shimcha ravishda ekofaolligimiz davlat tomonidan rag‘batlantirilmoqda. Masalan, yuqori ko‘rsatkichga erishganlarga “Ekofaol fuqaro” maqomi beriladi hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan banklardan iste‘mol krediti olishda chegimlar taqdim etiladi. O‘ilaning barcha voyaga yetgan a‘zolari “Ekofaol fuqaro” maqomini olganda, ushbu oilaga “yashil oila” maqomi berilib, ularga shu yildan boshlab har yili lotereya orqali 14 ta elektromobil berish yo‘lga qo‘yiladi.

Bu esa “yashil iqtisodiyot”, atrof-muhit muhofazasi, fuqarolar salomatligini o‘iladan boshlab joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Buning uchun davlat fuqarolarini rag‘batlantirishni maqsad qilayotgani tahsinga sazovor.

Davlat dasturida belgilangan bu kabi rag‘bat va vazifalar, birinchi galda, fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, atrof-muhitni muhofaza qilish kelajak avlodlarga sog‘lom hayot va toza tabiatni meros qoldirishning asosiy omilidir. Ekologik muvozanatni saqlash

esa inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashning muhim yo‘li, desak adashmagan bo‘lamiz.

Yaqinda bir yurtdoshimizning kunchiqar mamlakatdan tayyorlagan videoroligini ko‘rdim. Ko‘chalar tozaligini ko‘rib, havasizing keladi. Eng qizig‘i, bizdagi kabi ularda yo‘l chetlarida chiqindi qutilari qo‘yilmas ekan. Hayron qolasan kishi, qayerda ovqatlanishi yoki biror ish bilan shug‘ullanishidan qat‘i nazar, chiqindini o‘zlari bilan olib ketisharkan.

Shunga o‘xshash mavzudagi yana bir videodan anglashiladiki, Yevropaning qaysidir bir davlatida katta yo‘lda ketayotgan mashina yo‘lovchisi oynadan turli shisha idishlarni uloqtiradi. Keyingi mashinadagi odam ularni to‘xtatib, tanbeh beradi. Aybdor yo‘lovchi uzr so‘raydi va tashlagan narsalarini yig‘ishtirib oladi. E‘tiborlisi, boshqa haydovchilar ham to‘xtab, bu harakatni ma‘qullashdi, ya‘ni hech kim ozodalik, atrof-muhit obodligiga befarq bo‘lmadi.

Qush uyasida ko‘rganini qiladi, degan naql bor. Agar bolalik paytimizni eslasak, yoshi kattalar suvga tupurqan, ariqlarga chiqindi tashlaganlarga yaxshigina saboq berar edi. Yaqinda ko‘rgan bir holatim esa hafsalamni pir qildi. Ona maktabga ketayotgan o‘g‘liga plastik paketga solingan chiqindini berib, yo‘lda tashlab ketishini aytdi. E‘tibor qiling, chiqindixonaga emas, shunday yo‘l-yo‘lakay, xohlagan joyiga. Bola ko‘p qavatli uy oldidagi yomg‘ir suvi o‘tishiga mo‘ljallangan kichik ariqqa qo‘lidagi paketni tashlab, yo‘lda davom etdi. Buni ko‘rgan yoshi kattaroq qo‘shnimiz unga tanbeh berdi. Yuqoridan qarab turgan ona qo‘shniga shunday malomat toshlarini otdiki, qo‘yaverasiz. Aytishicha, u chiqindini olib ketishi uchun pul to‘larkan. Baraka topkur, hammamiz ham chiqindi uchun pul to‘laymiz, lekin uning uchun maxsus chiqindixonaga bor-ku.

Shu o‘rinda o‘sha ona farzandiga bir og‘iz bo‘l ishi xatoligi, atrof-muhit tozaligi barchamizning sog‘lig‘imiz uchun foydali ekanini aytganida edi, bola bu ishni boshqa hech qachon takrorlamagan bo‘larmidi? Chunki aksariyatimiz bolaligimizda qaysi bir xato ishimiz uchun kattalardan yaxshigina dakkii yeganimiz. Buni esa doimo yodda saqlaymiz.

Bugun-chi?! Nazarimda tabiatga munosabatimiz o‘zgargan, atrof-muhit musaffoligi



uchun mas‘uliyatimiz kamaygandek. Mana shunday bir sharoitda, qolaversa, global iqlim o‘zgarishlari sabab ekologiya har qachongidan ham e‘tibor va ko‘makka muhtoj bir pallada davlat dasturida bu borada katta maqsad va vazifalar belgilanishi ayni muddodir.

Jumladan, davlat dasturiga muvofiq, aholisining yarmi “yashil oila” maqomini olgan mahallalarda “Eng toza mahalla” va “Eng yashil mahalla” tanlovlari o‘tkaziladi. Tanlovda g‘olib bo‘lish shunisi bilan ahamiyatliki, shu hududda yashovchi aholi takliflari asosida mahallaning ichki infratuzilmasini yanada yaxshilashga qaratilgan tadbirlar — yo‘llarni ta‘mirlash, energotejamkor yoritish uskunalarini, bolalar maydonchalari, chiqindi yig‘ish maydonchalari qurish, “yashil bog‘” yaratish, chiqindi qutilari va konteynerlarini o‘rnatish kabilarga 500 million so‘m ajratiladi.

Demak, ekofaolligimiz hisobiga, birin-chidan, tabiatimiz musaffoligini ta‘minlashga hissa qo‘shsak, boshqa tomondan, o‘zimiz yashayotgan mahalla infratuzilmasini yaxshilashga imkon yaratamiz.

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, bir yilda xonadonlarda 2 milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. O‘zbekistonda ham ushbu ko‘rsatkich kam emas, yiliga 10 million tonnadan ziyod.

Agar mamlakatimiz aholisi har yili 1,5 foiz ko‘payayotganini hisobga olsak, bu ko‘rsatkich 2030-yilga borib, 18 million tonnani tashkil etishi ayonlashadi. Bu raqamlar faqat maishiy chiqindiga tegishli. Bugun 100 dan ortiq poligonda ikkilamchi xomashyo sifatida 3,5 milliard tonna sanoat chiqindilari ham saqlanmoqda.

Aslida, ekologik barqarorlikni ta‘minlashda maishiy chiqindilarni qayta ishlashdan manfaatdormiz. Bu dunyo tajribasida ham o‘z isbotini topgan.

Chiqindilar dunyo bo‘yicha eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib ulgirdi. Mazkur turdagi zararli mahsulotlarni to‘g‘ri boshqarish nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlaydi, balki iqtisodiy resurslarni tejashga ham yordam beradi.

Bugun ko‘pchilgimizni xonadonimiz, ish joyimiz, o‘qish va dam olish maskanlaridan chiqayotgan maishiy chiqindilar qayerga ketayotgani tashvishlantirishi tabiiy. Oramizda maishiy chiqindilar nima va ular qayerga ketadi, deb savol beruvchilar ham topiladi, albatta.

Bu borada yurtimizda tizimlashtirilgan rejali ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan yillarda qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilinib, muammolarga samarali yechimlar

topildi. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 2030-yilga borib, maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, qattiq maishiy chiqindilarni saralash tizimi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Jumladan, 2024-2026-yillarda Toshkent, Angren, Andijon, Buxoro va Termiz shaharlari hamda Toshkent tumanidagi ko‘p qavatli uylar joylashgan hududlarda chiqindilarni “qayta ishlاندilgan”, “qayta ishlانmaydigan” va “oziq-ovqat” toifalariga ajratgan holda yig‘ish tashkil etiladi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

IJTIMOY-EMOTSIONAL

Qaror va ijro

Mamlakatimizda ta‘lim tizimi keng isloh qilinmoqda. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, ta‘lim muassasalarida o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi. Ayni shu maqsadda ta‘lim tizimida jahonda sinalgan va yaxshi samara berayotgan yangi standart hamda metodikalar keng joriy etilyapti. Maktab, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida tajribali xorijlik pedagoglar saboq bermoqda, o‘zaro tajriba yo‘lga qo‘yilgan.

Prezidentimizning 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida 2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta‘lim — Social and Emotional Learning metodikalarini bosqichma-bosqich joriy qilish vazifasi belgilangan.

Shu o‘rinda ushbu metodika nega joriy qilinmoqda, degan tabiiy savol tug‘iladi. Bu, albatta, bejiz emas. Chunki bugun ijtimoiy-emotsional ta‘lim dunyo miqyosida juda katta pedagogik ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi.

Ijtimoiy-emotsional ta‘lim atamasi dastlab AQSHda XX asrning 60-yillarida iste‘molga kiritilgan. Taniqli bolalar psixologi Jeyms Komer bolalar o‘quv markazidagi hamkorlari bilan “Komer maktabining rivojlanishi” dasturini muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazgan. Ushbu dastur dastlab ikkita past ko‘rsatkichli maktabga ishlab chiqilgan edi. Dastur maktab o‘quv faoliyati uchun qulay muhit yaratish, bu muhitni o‘quvchilar qadrlashi va sevishi, bolalar bilan bog‘liq muammolarni dialog va empatiya vositasida yechish, o‘qituvchi o‘ta qattiqqo‘llik qilmasligi, aksincha, o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonga o‘qituvchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar jalb qilingan.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi o‘rtadan yuqori darajaga ko‘tariladi. Ularning xulq-atvori va maktabga qatnashi bilan bog‘liq muammolar to‘liq bartaraf etiladi. Shu bois, ijtimoiy-



emotsional ta‘lim metodikalari bugungi kunda nafaqat AQSHda, balki Buyuk Britaniya, Rossiya kabi dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda va tadqiq qilinaypti.

Yuqorida tilga olingan qarorda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilariga 5 ta — o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va mas‘uliyatli qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni o‘rgatish nazarda tutilgan. Bu jarayonga



TA‘LIM METODIKASI

nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar ham jalb etiladi. Chunki bunday ta‘lim o‘quvchilarni har tomonlamma rivojlantirishga yo‘naltirilgan katta pedagogik ahamiyatga ega o‘quv jarayonidir.

Bunda o‘quvchilarda kelajak hayoti uchun zarur ko‘nikmalar shakllantiriladi. Ijtimoiy-emotsional ta‘lim emotsional intellekning muhimligi, shaxsning muvaffaqiyat qozonishi, bilimlarni puxta o‘zlashtirish hamda shaxslararo pozitiv munosabatlar ahamiyatini o‘quvchi, o‘qituvchi hamda ota-onalar ham anglashiga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda bu turdagi kompetensiyalarni rivojlantirish ularning o‘quv jarayoni va ijtimoiy munosabatlardagi muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Chunki ularning his-tuyg‘ulari va kechinmalari nimani qanday o‘rganishlariga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlash va hamdardlikka asoslangan munosabat, o‘z navbatida, o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy-emotsional ta‘lim bolalarning o‘zlashtirish darajasida ham ijobiy rol o‘ynaydi. Ularning salomatligini muhofaza qilishga munosib hissa qo‘shadi, madaniyat darajasi hamda g‘oyalarni generatsiyalash imkoniyatini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning butun o‘quv faoliyati davomida muvaffaqiyatga erishishini ta‘minlab, ularga ruhiy ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi.

Mazkur metod o‘quvchilar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratadi. Natijada ular murakkab vaziyatlarga yechim topish, uni o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, mas‘uliyatni his qilish va his-tuyg‘ularni boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shuningdek, turli bosimlarga qarshi kurashish strategiyasini o‘zlashtirish hamda undan

amalda foydalanish, muvaffaqiyatli o‘quv muhitini yaratish va kreativ faollik ko‘rsatish imkoniyatini taqdim etadi.

Bunday ta‘lim o‘quvchilarga qator kognitiv, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ham qulay. Maktabda bolalar o‘ziga ma‘qul pedagogik muhitda ta‘lim oladi. Shu bilan birga, egallagan nazariy bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlab, zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Yon-atrofdagi turli yot g‘oyalari va tahdidlar o‘quvchilarga ta‘sir qilishi shubhasiz. Ijtimoiy-emotsional ta‘lim esa o‘quvchilar rivoji uchun muvaffaqiyatli pedagogik muhit yaratadi.

Qarorda o‘quvchilarni hayotga tayyorlashga qaratilgan 5 ta muhim kompetensiyani tizimli tarzda shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, o‘z-o‘zini anglash kompetensiyasi emotsional intellekning asosini tashkil etib, o‘quvchilar o‘z shaxsiy his-tuyg‘ularini anglash layoqati, motiv va ta‘siriga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Boshqa tomondan, emotsional intellekt o‘z-o‘zini anglash, hamdardlik, ijtimoiy ko‘nikma, turli vaziyatlarga moslashish va undan qanday qilib chiqib ketish kabi ko‘nikmalarni mujassamlashtiradi. Bu esa o‘quvchilarda shaxs sifatida shakllanish tuyg‘usini uyg‘otadi, faoliyati samaradorligiga ishonch tug‘diradi. O‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchilarning nimaga qodir ekanini anglashiga ko‘maklashadi. Natijada ular o‘z istiqboli uchun qanday bilim va ko‘nikmalar zarurligini anglab yetadi. O‘z-o‘zini anglash kompetensiyasi o‘quvchilarning his-tuyg‘usi, xulq atvori, fikrlarni nazorat qilish yo‘llarini izlash imkoniyatini kengaytiradi.

Ijtimoiy xabardorlik kompetensiyasi esa o‘quvchilarda o‘z oldiga pozitiv maqsadlar qo‘yish va unga erishish, yon-atrofdagilari va sindfoshlariga ko‘maklashish tuyg‘usi paydo bo‘lishi, muammolarga yechim topish va muhim qarorlar qabul qilish kabi ko‘nikmalar rivojini ta‘minlaydi. Bu jihat shaxsning yaxlit tarzda rivojlanishi va muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mas‘uliyatli qarorlar qabul qilish ijtimoiy-emotsional ta‘lim jarayonida o‘quvchilar uchun zarur ko‘nikmalar sirasiga kiradi. Mas‘uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlash o‘quvchilarda fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Shaxslararo munosabatlarga ega bo‘lish ko‘nikmasi o‘quvchilarda atrofdagilar, tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta‘minlash sohasida juda ko‘p ish qilinmoqda. Bu yo‘nalishlarda tegishli huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, konsepsiya va strategiyalar mavjud.

Xususan, 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish bo‘yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Eng muhimi, O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini qat‘iyat bilan bajarib kelmogda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ham BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq hamohang tarzda ishlab chiqilgani buning amaldagi isbotidir.

Yuqorida yaponiyaliklarning ozodalikka e‘tibori haqida misol keltirdik. Kunchiqar mamlakatda ekologik madaniyat, tevarak-atrofga hurmat bilan qarash, tabiatni asrab-avaylash bolalikdan shakllantiriladi. Shuning uchun bu tarbiya yaponiyaliklarning qon-qoniga singib ketgan.

Bu bilan nima demoqchimiz? Albatta, biz ham oilamizda farzandlarimizni ozodalik, saranjomlik, pokizalik ruhida tarbiyalasak, vatanimizning har bir joyi o‘z uyimiz kabi saranjom-sarishta, toza bo‘lishi kerakligini ularning qalbiga joylay olsak, ko‘ngil va yurt obodligiga erishgan bo‘lamiz.

Bugun sohaning huquqiy poydevorini mustahkamlash borasida zarur me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan, shu asosida sharoitlar yaratilmoqda. Eng muhimi, bu bir vazirlik yoki tegishli korxona va tashkilotlarningina emas, balki barchamizning umumiy ishimiz. Agar shu maqsad yo‘lida birlashsak, ekologik barqarorlikni saqlab qolish, tabiat muhofazasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lamiz.

Xulosa o‘rinda aytish kerakki, davlat dasturi ayni sohadagi ishlarni yanada jonlantirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatimizni tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

muvaffaqiyatli hamkorlikka kirishish kabi ko‘nikmalarni paydo qiladi.

Bu faol tinglay bilish, jamoada ishlash, atrofdagilar bilan sog‘lom munosabatga kirisha olish, ziddiyatli vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qilishdan iborat. Ushbu ko‘nikmalar ijtimoiy-emotsional ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish va muvaffaqiyatli boshqarish natijasida shakllanadi.

O‘quvchilarda mustaqil fikrlay olish, g‘amxo‘r, intizomli va axloqli bo‘lish, hamkorlik va o‘zaro baham ko‘ra olish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham ijtimoiy-emotsional ta‘lim metodikalari muhim ahamiyatga ega. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari, didaktik matn va videokontentlar o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojini qondirish va ijtimoiy-emotsional jihatdan rivojlantirish imkonini beradi. Natijada ular uchun sindfoshlariga nisbatan pozitiv munosabatda bo‘lish hamda ruhiy ko‘tarinkilikka asoslangan ta‘lim muhiti yaratiladi.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayoni kechayotgan, fan va texnologiyalar kun sayin rivojlanayotgan bir davrda o‘quvchilar egallayotgan bilim va ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida, shaxs rivojiga kuchli ehtiyoj tug‘diradi, o‘quvchilarning ta‘lim muassasasidayoq turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Ijtimoiy-emotsional ta‘lim bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning asosiy tarkibiy qismiga aylannmoqda. U o‘quvchilarda liderlik, kreativ fikrlash, murakkab muammolarni yechish layoqatini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakda farovon hayot kechirishi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi, jamiyat a‘zolarining bir-birini o‘zaro tushunishi va anglashi, hurmat nazari bilan qarashi, tolerantlik ko‘nikmasini namoyon etishiga ko‘maklashadi. Ijtimoiy-emotsional ta‘lim bolalar kelajagi uchun zarur investitsiyadir. U o‘quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, ularni kelajak hayotga tayyorlash imkonini yaratadi. Buning natijasida o‘quvchilar nafaqat o‘z kelajagini belgilaydi, balki mamlakat rivoji va taraqqiyoti uchun foydali shaxs bo‘lib voyaga yetadi.

Rohatoy SAFAROVA,
pedagogika fanlari doktori,
professor



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“MAHALLA-KO‘Y NIMA DEYDI?”

Mulohaza

O‘zbek oilasi borki, har bir ish, tadbir, qadam, to‘y-ma‘raka jarayonida ana shu savol yangraydi: “Mahalla-ko‘y nima deydi?”. Bu so‘roqning zamirida asosan, tarbiya va ma‘naviyat mujassam. Masalan, bu gap katta yoshdagilar tomonidan qadam olishi sal o‘zgargan o‘spirin, ro‘zg‘oridagi janjal tufayli ota uyiga kelgan qiz, bosar-tusarini bilmay, “ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” qabilida ish tutayotgan kishilarga qarata aytiladi. Va bu odamlarni ko‘plab noto‘g‘ri ishlardan tiyib turadi. Har holda, biz mana shu nazoratli so‘roq ostida ulg‘ayganimiz, tarbiya topganimiz.

O‘zini zamonaviy demokratiya va erkinlikka mansub deb biladiganlar e‘tiroz qiladi: bu inson huquqlarini kamsitish, dunyoviy davlatlar tamoyillariga zid, jamiyatimiz erkin va barcha o‘zi istagandek hayot kechirishga haqli deb. To‘g‘ri gap, lekin “Mahalla-ko‘y nima deydi?” degan savolga vaqti-vaqti bilan javob izlamas ekanmiz, insoniylik me‘yori, ma‘naviyat sarhadlariga putur yetadi. Zero, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini — mahallaning vazifasi, nazarimizda, odamlarni nazorat qilish emas, to‘g‘ri boshqarish, to‘g‘ri o‘zanga solishdir.

O‘zini o‘zi boshqarishning muhim instituti bo‘lmish mahalla faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan vazifa sifatida baholalanib, alohida e‘tibor qaratib kelinayotgani bejiz emas. Qolaversa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun qator huquqlar nazarda tutildi. Endi mahallaning o‘zida 70 dan ortiq masala, jumladan, tarbiya va sog‘lom muhitni ta‘minlash loyihalarini tasarruf qilish, moddiy yordam va kreditlar masalasini hal etish, tizimni to‘liq raqamlashtirish, mahalla raisining vakolatlarini kengayishi kabi jihatlariga e‘tibor qaratildi.

“Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba ortiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlalkalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz — mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘sinı qancha ko‘rsak,

YOXUD INSONIY VA MA‘NAVIY SARHADLARNING ISHONCHLI HIMOYACHISI

odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi”. Davlatimiz rahbarining ushbu gaplari bugun o‘z isbotini topganiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Ma‘rifiy siyosat mujdalari

Bugun qadriyatlar beshigi, tarbiya oshyoni bo‘lgan mahalla bilan ma‘naviyat va ma‘rifat vakillarining tobora mustahkamlanib borayotgan hamkorligidan maqsad nima? Mazkur itifoq berayotgan va undan kutilayotgan samara qanday? Nima uchun endi bu tarkibga haj ziyoratini ado etgan minglab hojilarimiz ham qo‘shildi?

Respublikamizda mahalla, ma‘naviyat va ma‘rifat vakillari hojilar bilan birgalikda targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishining mexanizmlari, usullari takomillashtirilgani bejiz emas. Takror bo‘lsa ham aytish kerak, ma‘naviyat, avvalo, oiladan, ma‘rifat esa mahalladan boshlanadi. Komili tarbiya, qadriyatlar qadriini oshirish, an‘analarni saqlashni maqsad qilgan ekanmiz, mahalla targ‘ibot maskaniga, xonadonlar asosiy ish joyiga, har bir farazdan kelajagi faollar maqsadiga aylanishi shart.

Davlatimiz rahbari raisligida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida bu borada qator vazifalar belgilab berilgan edi. Undan avvalroq, ya‘ni 2023-yil 16-17-noyabr kunlari Prezidentimiz Surxondaryo viloyatiga tashrif chog‘ida Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida hududlardagi to‘rtta sektorga qo‘shimcha beshinchi — ma‘naviyat sektorini tashkil qilish bo‘yicha taklif bildirgan edi. Sektorning “Surxondaryo tajribasi”ni yaratish vazifasi belgilab berilgan mahallani jamiyatning ma‘naviy qiyofasiga aylantirish bo‘yicha yangi kuchlarni harakatga keltirdi.

Ma‘naviyat sektoriga tashkilot va korxonalarning mas‘ul rahbarlari, ziyolilar birlashtirilib, hududlarning ijtimoiy-ma‘naviy xaritasi yaratildi. Sektor jamiyatdagi muammolarga tizimli yondashib, qilinayotgan ishlarni muvofiqlashtiryapti. Ma‘naviyat sektorini tashkil qilish orqali ijtimoiy-ma‘naviy muhitni barqarorlashtirish, aholi keng qatlamini kitobxonlikka jalb etish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniyat va san‘atga oshno qilish, unutilib ketayotgan milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimizni ommalashtirish hamda xalqimiz orasida mehr-oqibatni kuchaytirish kabi qator muhim vazifalar ijrosi ta‘minlanmoqda.

Musulmon olamida hojilikka ulug‘ maqom sifatida qaralgan. Bu maqom egalari sog‘lom e‘tiqodi, ma‘naviyati, insoniyligi, ezgu amallari,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



qolaversa, atrofdegilar orasida ham ushbu sifatlarini targ‘ib etishi bilan boshqalarga namuna bo‘lgan.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili Qurbon hayiti munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tabrigida “**Umid qilamizki, hojilarimiz vatanimizga qaytgach, jamiyatimizdagi mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi hamda oilalar totuvligini kuchaytirishda ibrat va namuna ko‘rsatadilar**”, deya yuksak ishonch bildirgandi.

Bu chaqiriq haj ziyoratini ado etayotgan yurtdoshlarimiz tomonidan ham mamnuniyat bilan qabul qilindi. O‘zbekiston musulmonlari ezgu da‘vat o‘rnidagi yakdli murojaat bilan Prezidentimiz chaqiriq‘iga “labbay” deb javob qaytardi.

— Xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlilali davrda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi talablar asosida tashkil etish lozim, — deydi Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Toshkent shahri bo‘limi rahbari Muhayyo Ismoilova. — Yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi,

tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirish mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurashishda shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan hojilarimizning ma‘naviyat targ‘ibotchisi sifatida safimizga taklif qilinishi kelgusidagi ishlarimizning natijadorligi, uzviyligi hamda sifatini kafolatlatadi.

Yettita ota-onasi bor bolalar

Xalqimizda “Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi” degan maqol bor. Bugun ushbu maqol yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu zamon talabi, albatta. Shu o‘rinda bir hayotiy misol keltirsak.

Bolalikdan birga o‘sgan tengqur mahalladoshim bor. Ismi sir bo‘la qolsin. O‘ziga to‘q oilada o‘sdi. Ota-onasi hech narsadan kam qilmadi. O‘spirinlik davrida qo‘l umagan noma‘qulchiligi yo‘q edi: maktab darslarini tashlab qo‘ydi, ichkilik va kashandalikka berildi, sayoq yuradigan bo‘ldi, o‘g‘rilik va kissavurlik havosini oldi. Ichkilik, kashandalik, sayoq yurishi yetmaganday, o‘g‘rilik va kissavurlikni kasb qilganiga barchamiz hayron edik. Chunki uning bunga umuman ehtiyoji, muhtojligi yo‘q edi. Ota-onasi cho‘ntagini pulga to‘ldirib qo‘ygandi. Nazarimda, shu 1990-yillardagi beqaror yoki “ko‘cha” muhitiga moyil yoshlarning aksariyati shunaqa edi.

Xullas, shu yigit mahalladagi xonadonlarga o‘g‘rilikka tushish, xilvat joylarda yo‘lovchilarni tunash, jamoat transportida begona hamyonlarni kavlash, avtomobillarni olib qochish bilan shug‘ullanadigan ko‘chabozoriga aylandi. Shu toifa yoshlar suruhiga o‘ralashib qoldi. Ota-onasi, aka-ukalarini isnodga qo‘ydi. Natijada qamalib, uzoq muddat jazo o‘tadi. Hozir insof kirgan, barcha yomon odatini tashlab, qilmishlaridan pushaymon. Poytaxtdagi tamaddixonalardan birida oshpazlik qiladi. Yaqinda ko‘chada ko‘rib qolib, to‘xtadim. Mashinada subhatlashib ketdik, manzilga yetganimizdan keyin ham gurgumiz ancha vaqt davom etdi. Yoshi ellikdan o‘tgan mahalladoshim ancha bosiq, mulohazali bo‘lib qolgan edi.

— Ahmoq bo‘lganman, bilasan, — dedi ko‘zimga qaramaslikka harakat qilib. — Hayotimni o‘zim barbod qildim, kuchga to‘lgan, ota-onamning xizmatini qiladigan pallamni boy berdim. O‘z vaqtda hech kimning pand-nasihatini quloqqa olmadim. Jigarlarim, qo‘shnilar, mahalla-ko‘y, do‘stlarim gapirganda qulog‘im kar, ko‘zim ko‘r ekan. Ota-onamning “Mahalla-ko‘y nima deydi endi?” deya kuyinishlari ham muz qalbinga tariqcha ta‘sir qilmadi. Bilasanmi, shunaqa paytda jahlim chiqardi. “Bularning men bilan nima ishi bor-?” deb achchiqlanardim, jerkib tashlardim. Bezoriligimdan, qo‘limdan har ne yomon ish

kelishidan ko‘pchilik mendan hadiksirab ham gapirolmadi. Go‘yo barcha menga dushman edi. Aslida, ular haqiqiy do‘stlarim ekanini, menga joni achiyotganini kech angladim.

Bu gaplardagi taassuf, armon va nadomat chin dildan ekaniga amin bo‘ldim. Lekin keyingi aytganlaridan uning ham, mening ham ko‘nglimiz yorishdi.

— Endi meni hayajonga solgan jihatni aytaman. Jazoni o‘tash jarayonida o‘tmishimni tahlil qildim, xatolarimni tushundim, xulosalar chiqardim. Bir narsadan qo‘rqdim: uyga qaytgach, qachonlardir mendan ozor ko‘rgan yaqinlarim, odamlar, mahallam, qo‘shnilarim meni qabul qilamikan? Ishonasanmi, qabul qilishdi. Bugina emas, yana oyoqqa turishimga, o‘z o‘immi topishimga astoydil yordam berishdi. Xabaring bor, bir necha yil avval ota-onam o‘tib ketdi. Men qamalganimda mahallamizdagi Abzor akaning o‘g‘li Ibrohim yosh yigit edi, hozir rais bo‘libdi. Uyimga kelib, maslahat berdi. Baraka topsin, yonidagi yordamchilarini ishga solib, kam-ko‘stimni to‘g‘rilashga bosh-qosh bo‘ldi, hozirgi ishimga joylab qo‘ydi. Bir yarim yil bo‘ldi, goh Ibrohim, goh profilaktika inspektori, yana boshqa faollar qo‘ng‘iroq qilib turadi. “Nima muammo, qanday kamchilik bor?” deb so‘raydi. Mana, bugun sen uzoq‘imni yaqin qilib, uyimga olib kelib qo‘yding. Hayotga qaytganim shu bo‘lsa kerak-da!..

Tanaffussiz jarayon

Mahalla — ma‘naviyat va ulug‘ qadriyatlar beshigi, deymiz. Bu beshikni esa, shubhasiz, nuroniyalarimiz tebratadi. Bugun yurtimizda 3 milliondan ortiq keksa umrguzaronlik qiladi. Ular ishtirokisiz yoshlar tarbiyasi va ma‘naviyatiga e‘tibordan natija kutish mumkin emas. Ta‘lim-tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi. Shu ma‘noda, yosh avlod bilan ishlashda, ma‘naviy-ma‘rifiy sohada keksalar yordamidan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Prezidentimizning 2023-yil 11-martdagi “Keksalar avlod vakillari har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish va keksalar avlod vakillarining boy hayotiy tajribasidan oqilona foydalanishda muhim omil bo‘lmoqda.

Mazkur qaror ijrosi doirasida mamlakatimiz bo‘ylab “Bir nuroniy — o‘n yoshga mas‘ul” tamoyiliga muvofiq, yoshlar har bir mahalladagi hayotiy tajribaga ega, zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniyalarga, shuningdek, muammoli oilalarga “Keksalar maslahati” guruhlari har nafardan a‘zosi birlashtirilgan. Bu ishlar profilaktik hisobda turgan yoshlarni sog‘lom hayotga qaytarish, notinch oilalarni yarakshilash va ajralishlarning oldini olishda samara bermokda.

Bugun har bir nuroniyning mahallada o‘z o‘mi, aytar gapi hamda so‘zining salmog‘i bor. “Qari bilganni pari bilmas” degan gap bejiz aytilmagan. Ularining hayotiy tajribasi, ro‘zg‘or past-balandini yaxshi o‘zlashtirgani yoshlarni to‘g‘ri o‘zanga burish uchun ayni muddaodir. Shu bois, mabodo qandaydir muammo yoki masala qarshisida noto‘g‘ri qadam tashlash paytida bo‘lgan birorta yosh bo‘lsa, tayyor tursin, hademay o‘lsa savol yangraydi: “Mahalla-ko‘y nima deydi?”.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Turizm

Odatda tabiat va tog‘lar haqida gap ketganda, bahor va yoz oylarida yashnab turgan yam-yashil archalar, turli tog‘ goyohlari, ariqlarda sharqirab oqayotgan zilol suvlar ko‘z oldimizga keladi. Haqiqatan, bu fasllarda tabiatning ko‘rki va manzarasi o‘zgacha bo‘ladi. Lekin kuz-qish mavsumida ham tog‘lar jozibasiga mahliyo bo‘lishning gashti o‘zgacha. Shu bois, Zomin milliy tabiat bog‘ining qish faslidagi manzarasini kuzatish niyatida safarga chiqdik.

Zomin markazidan yuqoriga o‘rlagan yo‘lda, suv omboridan o‘tgach, qirlar bag‘ridagi oppoq qor qalinlasha boshladi. Duoba, Tog‘terak qishloqlarini ortda qoldirib, O‘rikli soyaga yetib keldik. Zomin milliy tabiat bog‘ining chegarasi shu yerdan boshlanadi. Milliy bog‘ning ramazi darvozasi ham O‘rikli soyda.

— Bog‘ tuman markazidan 30 kilometr, aeroportdan 40 kilometr, Dashtobod shahridan 55 kilometr uzoqlikda joylashgan, — deydi Zomin milliy tabiat bog‘i ilmiy kotibi Saidrasul Barakayev. — Qishning qirovli kunlari qor qalin yoqqanda turli jonivorlar ozuqa axtarib qoladi. Shu bois, hududimizda biotexnik tadbirlar o‘tkazib turamiz. Yaqinda O‘rikli soy aylanmasi atrofida mana shunday tadbir uyushtirdik. Yovvoyi hayvonlar va qushlar uchun dag‘al xashak, don, tuz tashlab chiqdik. Bu tadbir, asosan, hayvonot olamini qo‘riqlash, ularni qish mavsumidan botalafot olib chiqishga qaratilgan.

Bilasis, qorli kunlarda turli hayvonlar tashqariga chiqadi. Hozir uyquda yotgan



ayiqlardan boshqa barcha yirtqichlar harakatda. Bu atrofda ko‘p uchraydigan yovvoyi cho‘chqa, tog‘ echkisi, yovvoyi quyon, bo‘ri, silovsin, kabutar, kaklik kabi hayvon va qushlar ana shulardan ozizqlanadi.

Yo‘lda davom etdik. Tekis yo‘l chetida suhbatlashib turgan maxsus xizmat kiyimidagi odamlarga ko‘zimiz tushdi.

— Jamoamizda 71 xodim ishlaydi, 34 nafari nazoratchi, — suhbatimizni davom ettirdi hamrohimiz. — Ularining har biriga alohida hududlar birlashtirilgan, shu joylarni nazorat qiladi. Barcha fasllarda daraxt shoxini sindirmaslik, turli o‘t va giyohlarni uzmaslik dam oluvchilarga tushuntiriladi. Shuningdek, faqat ruxsat etilgan va belgilangan joylarda dam olish va sayr etish borasida sayyohlarga yo‘l-

yo‘riq ko‘rsatamiz. Milliy tabiat bog‘imizning ichki tartib intizom va qoidalariga amal qilishni eslatamiz. Tog‘larimizda mehmonlar va sayyohlar e‘tiborini tortadigan maskanlarimiz ko‘p. Shuni hisobga olib, ekoturizm xizmatini yo‘lga qo‘yg‘anmiz. 20 dan ortiq sayyohlik yo‘nalishi mavjud. Sayyohlar dam olish uchun alohida joylar tayyorlangan. Turli maishiy chiqindilar uchun maxsus qutilar o‘rnatilgan.

Aylana yo‘llardan Zomin sanatoriysi atrofiga yetib keldik. Yozda odamlar gajjumligidan oyoq bosishga joy topilmaydigan sharshara atrofi siyrak. Beligacha qorga ko‘milgan archalar go‘yo qishning qahraton ayoziga ham bardosh berishga qodiriligini ko‘z-ko‘z qilgandek ko‘kka mag‘rur bo‘y cho‘zib turibdi. Yon-atrofda o‘zgacha bir jimgitlik va sokinlik hukmron.

Yozda odamlarga zavq-shavq ulashib, toshdan toshga urilib, shovqin soladigan suv ham hozir go‘yo atrofda sokinlikka ham ohangdek ohista oqmoqda. Balandda zangori osmon bag‘rida burgut qanotini keng yozgancha uchib yuribdi. Tepalikda osma dor yo‘li to‘xtovsiz ishlayapti. 36 ta mo‘jaz kabinadan Zomin tog‘larining qishki manzarasini kuzatish zavqiga nima yetsin.

Sufa — Zomin milliy tabiat bog‘ining faxri. Bu yerda davlatimiz rahbarining 2021-

yil 6-apreldagi “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Kelajakda Sufada sayyohlik shaharchasi barpo etilishi rejalashtirilgan. Hozir sayyohlarga dam olish va tabiat manzarasini kuzatish imkoniyati yaratilgan. Osma dor ko‘pri, ming o‘rinli amfiteatr, zamonaviy mehmonxonalar, sog‘lomlashtirish va ko‘ngilochar maskanlar sayyohlar xizmatida. Bu yerda qish uzoq davom etadi, ertda ham qor yog‘ishi mumkin. Shularni hisobga olib, qish mavsumida tog‘-chang‘i sportini tashkil etish rejalashtirilgan.

Safardan qaytar ekanmiz, mashina go‘yo jilovi bo‘shatilgan otdak pastga shitob bilan shovqinlaydi. Qorlari eriy boshlagan yo‘lda haydovchi tez-tez mashina “jilovi”ni bosadi. Haydovchi Sardon Egamnazarov Toshkent kimyo texnologiyalari instituti turizm fakulteti 4-bosqich talabasi, ayni kunda milliy bog‘da amaliyot o‘qimoqda.

— Bog‘imiz 1976-yilda tashkil etilgan, maydoni 23429,2 gektar, — deydi Zomin milliy tabiat bog‘i direktori o‘rinbosari Hunsiddin Hazratqulov. — Milliy bog‘da alohida ekologik, madaniy va estetik qiymatga ega tabiiy ahzor va majmualarni muhofaza qilish, tabiatini

asrash, bunday go‘zal manzaralarga ega joylarda turizmini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri. Bu yerda, asosan, archaning qora va savr turllari uchraydi. 105 oila, 531 turkumga mansub 1216 tur o‘simlik o‘sadi, ularning 21 turi xalqaro va O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan. 282 turdan ortiq umurtqasiz hayvonlar, 102 turdan ortiq qushlar, suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar uchraydi. Bu yerda xalq tabobati uchun zarur yuzdan ortiq turdagi shifobaxsh va dorivor o‘simliklar o‘sadi.

Milliy tabiat bog‘ida keng ko‘lamli tadqiqot ishlari olib borilyapti. O‘simlik va hayvonot dunyosi tarkibining to‘liq kadastr kitobini ishlab chiqish, archa va boshqa o‘simliklar asosiy zararkunandalari hamda kasallik tarqatuvchilarga qarshi kurashda biologik chora-tadbirlarni kuchaytirish, biolaboratoriya ochish shular jumlasidan. Bu borada O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda ishlanyapti. Yaqin kelajakda noyob o‘simlik va hayvonot dunyosi tarkibini targ‘ib qiluvchi elektron muzey faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Suhbatlashib tursak, yo‘l chetida archalar oralab chopayotgan jonivorga ko‘zimiz tushdi. Olmaxon ekan. Tabiat go‘zalligiga yana bir nigoh tashladik. Daraxt shoxidagi muz parchalari ipga tizilgan marvarid donalaridek yaltirab turibdi. Archalar orasida kaklik sayraydi. Uning aks sadosi tabiat to‘rt faslda ham o‘z jozibasini yotqomasligi, hayot bir zum ham o‘xtamasligi qanday solayotgandek go‘yo. Ko‘nglimizda qish havosidek beg‘ubor tuyg‘ular jo‘sh urib, hayajon va zavqdan o‘zimizni qushdek yengil his etdik. Ertalabdan quyosh yuzini to‘siib turgan bulutlar ham tarqaldi. Otfobning zarrin nurlarida tog‘larda yastanib yotgan oppoq qor ko‘zni qamashlardi. Ana shunday tiniq xayollar va taassurotlar bilan safarni yakunladik.

Abdusattor SODIQOV,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyaıı DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyaıga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydı va muallıfıga qaytarılmaydı. Gazetaning yetkazıb berılıshı uchun obunanı rasmiylashtırgan tashkılot javobgar. Gazeta tahririyaı kompyuter markazıda sahfalandı. Gazetaning polıgrafık jihatdan sıfatlı chop etılıshıga “SHARQ” NMAK mas‘ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** — 246. 37560 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy